


## Xizmatlar sohasining rivojlanishi – amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'zgidir

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2020- yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 2877,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 102,0 % ga o'sdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi: transport xizmatlari (25,0 %), savdo xizmatlari (23,6 %), moliyaviy xizmatlar (20,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.


### 2020- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, % da



*Ma'lumot uchun: 2019- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi 2600,4 mlrd. so'mga teng bo'lgan.*

2020- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2019- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan (277,1 mlrd. so'mga) oshdi. Joriy yilning oldingi 2020- yil yanvar-may oylari davriga nisbatan xizmatlar hajmi (636,6 mlrd. so'mga) ko'paydi.

**Ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga transport xizmatlari (161,7 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (168,3 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (105,7 mlrd. so'mga) hamda aloqa va axborotlashtirish (31,4 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2020- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2877,5</b>	<b>102,0</b>
Nukus sh.	1820,0	104,5
Amudaryo	100,5	100,7
Beruniy	101,9	100,6
Bo'zatov	6,1	105,8
Qorao'zak	25,2	100,2
Kegeyli	24,7	100,3
Qo'ng'iro't	308,2	91,6
Qonliko'l	22,8	100,7
Mo'ynoq	23,7	103,8
Nukus t.	23,3	103,2
Taxiatosh	38,6	100,4
Taxtako'pir	24,3	103,1
To'rtko'l	120,3	100,9
Xo'jayli	93,0	100,8
Chimboy	47,6	100,4
Shumanay	23,6	100,1
Ellikqal'a	73,7	100,5

Shahar va tumanlar o'rtasida eng katta hajm Nukus sh. (1820,0 mlrd. so'm), Qo'ng'iro't (308,2 mlrd. so'm), To'rtko'l (120,3 mlrd. so'm), Beruniy (101,9 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Bo'zatov (6,1 mlrd. so'm) tumanida kuzatilmoqda.


2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, 2020- yil yanvar-iyun oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Bo'zatov tumanida (105,8 %), Nukus shahrida (104,5 %), Mo'ynoq (103,8 %) va Nukus tumanlarida (103,2 %) qayd etildi.

**2020- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Qo'ng'irot (91,6 %) tumanida kuzatildi.

**2020- yil yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha jami xizmatlar hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da**




Jami xizmatlar hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'rtasida Nukus shahri (63,3 %), Qo'ng'iro't (10,7 %) va To'rtko'l (4,2 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kam ulush Bo'zatov (0,2 %), Mo'ynoq (0,8 %), Shumanay (0,8 %), Taxtako'pir (0,8 %), Qonliko'l (0,8 %) va Nukus (0,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2020- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1511,1 ming so'mga teng bo'ldi. 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish 100,5 % ni tashkil qildi.

### 2020- yil yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari, ming so'm



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida - 5673,4 ming so'm qayd etildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Bo'zatov tumanida - 280,0 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Kegeyli tumanida - 123,7 % kuzatildi.

**2020- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab  
chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2877,5</b>	<b>102,0</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	179,9	107,3
moliyaviy xizmatlar	602,2	130,1
transport xizmatlari	718,5	97,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	405,5	98,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	80,5	95,6
savdo xizmatlari	678,6	97,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	77,5	87,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	158,0	114,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	30,5	77,8
ijara xizmatlari	57,5	86,5
kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	78,1	88,5
shaxsiy xizmatlar	101,3	91,6
me'morchilik sohasidagi xizmatlar	39,5	59,8
boshqa xizmatlar	75,4	87,0

**2020- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlarining o‘shish sur‘atlari, % da**



- |  |  |
|--|--|
| <b>1</b> Xizmatlar - jami                      | <b>8</b> Ta'lim sohasidagi xizmatlar                   |
| <b>2</b> Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | <b>9</b> Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar        |
| <b>3</b> Moliyaviy xizmatlar                   | <b>10</b> Ijara xizmatlari                             |
| <b>4</b> Transport xizmatlari                  | <b>11</b> Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| <b>5</b> Yashash va ovqatlanish xizmatlari     | <b>12</b> Shaxsiy xizmatlar                            |
| <b>6</b> Savdo xizmatlari                      | <b>13</b> Me'morchilik sohasidagi xizmatlar            |
| <b>7</b> Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | <b>14</b> Boshqa xizmatlar                             |

2020- yil yanvar-iyun oylarida 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlar (30,1 %), Ta'lim sohasidagi xizmatlar (14,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (7,3 %) kabi xizmatlarda yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi.

**2020- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da**

Transport xizmatlari	25,0 %
Savdo xizmatlari	23,6 %
Moliyaviy xizmatlar	20,9 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,2 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	5,5 %
Shaxsiy xizmatlar	3,5 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,8 %
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2,7 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,7 %
Boshqa xizmatlar	2,6 %
Ijara xizmatlari	2,0 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,4 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1 %

Jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (25,0 %), savdo xizmatlari (23,6 %), moliyaviy xizmatlar (20,9 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**2020- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Transport xizmatlari	718,5 mlrd. so'm
	Savdo xizmatlari	678,6 mlrd. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	602,2 mlrd. so'm
	Boshqa xizmatlar	202,9 mlrd. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	179,9 mlrd. so'm
	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	158,0 mlrd. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	101,3 mlrd. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	80,5 mlrd. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	78,1 mlrd. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	77,5 mlrd. so'm

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (718,5 mlrd. so'm), savdo xizmatlari (678,6 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (602,2 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (179,9 mlrd. so'm) bo'yicha kuzatildi.

Hozirgi vaqtda savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari hudud iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.


2020- yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 678,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 23,6 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 79,9 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 13,4 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,7 % ni egallaydi.

### 2020- yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



- **Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar**
- **Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**
- **Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**

### 2020- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari hajmi




Savdo xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (286,0 mlrd. so'm), To'rtko'l (59,1 mlrd. so'm) va Amudaryo (44,9 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko'rsatkich Bo'zatov (2,3 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2020- yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 678,6 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 97,4 % ni tashkil etdi.


### 2020- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlarining o‘shish sur‘ati, % da



2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o‘shish sur‘ati Nukus (109,4 %), Mo‘ynoq (108,1 %), Amudaryo (106,5 %) va Taxtako‘pir tumanlarida (104,6 %) kuzatildi.

Eng kam o‘shish sur‘ati Nukus (92,0 %) shahrida qayd etildi.

**2020- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha savdo xizmatlari ulushi, % da**




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o'rtasida Nukus shahri (42,1 %) va To'rtko'l (8,7 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o'rtasida eng kam ulush Bo'zatov (0,3 %), Kegeyli (1,5 %) va Shumanay (1,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2020- yil yanvar-iyun oylarida transport xizmatlari hajmi 718,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,3 % ni tashkil etdi.

### 2020- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar bo'yicha transport xizmatlarining o'sish sur'ati va hajmi



Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida (334,2 mlrd. so'm) va Qo'ng'iro't tumanida (220,9 mlrd. so'm) qayd etildi.


Transport xizmatlari hajmi bo'yicha eng kichik ko'rsatkich Bo'zatov tumanida (1,6 mlrd. so'm) qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan transport xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Bo'zatov tumanida (111,0 %) kuzatildi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 602,2 mlrd. so'mga teng bo'lib, 2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati esa 130,1 % ni tashkil etdi.

**2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy  
xizmatlarning tarkibi, % da**



**Xizmatlar sohasi statistikasi  
bo'limi  
61-224-92-15**